



TASVIRIY SAN'ATDA BADIY IFODA VOSITALARI, JANRLARI VA ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

yo'nalishi talabasi Akbarova Rayhona Jamoliddin qizi

rayhonajamolidinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tasviriy san'atning tur va janrlari to'g'risida bir qancha ma'lumotlarni keng bayon etadi hamda tasviriy san'atning tur va janrlarini keng yoritadi, batafsil ma'lumotlar beradi hamda ushbu yo'nalishda ijod qiluvchi pedagog va rassomlarga san'at turlarining mazmun mohiyatini to'la to'kis tushuntirib beradi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, janr, dastgoh, tur, natyurmort, umumlashtirish, ijod, manzar, naqqoshlik portret, rang tasvir, dekorativ rang tasvir, mahobatli rang tasvir, dastgohli rang tasvir, minyatura, grafika.

MEANS OF ARTISTIC EXPRESSION, GENRES AND MODERN APPEARANCES IN FINE ART

Annotation: This article provides a wide range of information about the types and genres of visual art and provides detailed information on the types and genres of visual art, as well as pedagogues and artists who create in this direction. fully explains the essence of art types.

Key words: Fine art, genre, easel, type, still life, generalization, creativity, landscape, painting portrait, color image, decorative color image, majestic color image, easel color image, miniature, graphics.



СРЕДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВЫРАЖЕНИЯ, ЖАНРЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ЯВЛЕНИЯ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация: В данной статье представлен широкий спектр сведений о видах и жанрах изобразительного искусства, дана подробная информация о видах и жанрах изобразительного искусства, а также о педагогах и художниках, творящих в этом направлении. Полностью объясняется сущность видов искусства.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, жанр, мольберт, тип, натюрморт, обобщение, творчество, пейзаж, живописный портрет, цветное изображение, декоративное цветное изображение, величественное цветное изображение, станковое цветное изображение, миниатюра, графика.

KIRISH

San'at to'g'risida juda ko'p allomalar turlicha tarif berganlar. Masalan san'at bu bir kishining ikkinchi kishiga so'zlar, bo'yoqlar va turli xil harakatlar orqali yetkaziladigan vositadir deyishgan. Falsafiy fikrda san'atni boshqacha tarif bilan izohlashadi. Bu san'at ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib borliqni his etmoqdir va bu ko'rish, eshitish va harakatlar vositasida yetkaziladigan vositasidir. San'ar keng qamrovli bo'lib o'z mazmuniga ko'ra u besh turga bo'linadi.

Birinchi badiy adabiyot: Badiy adabiyot-vaznga solingan so'zlar bilan ifodalanib kishilarga tovush orqali yetkaziladi. Demak har qanday so'zlar badiy adabiyot bo'la olmaydi. Chunki saralangan terma, juda ham mazmunli so'zlar yig'indisi badiiy adabiyot bo'la oladi.

Ikkinchi musiqa san'ati: Musiqa san'ati tovush va ohanglar orqali insonlarga etirof etiladi

Uchinchi tasviriy san'at: Tasviriy san'atda chiziq, shtrix, bo'yoq kabilar mazmunan yaratishi keyingi san'at turi namoyish qilinadigan san'at turi hisoblanadi. Bularga misol qilib aytishimiz mumkinki: estrada, balet va h.k.



Beshinchi san'at turi sintetik san'at turi: Sintetik san'at turi bo'lib ma'lum bo'lib muhim bir romchilar sintetik tasvirga olim tarzda namoyish qilinadigan san'at Masalan telvideniya san'at juda qadim zamonlarda mehnat jarayonning taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi. Mehnat jarayonida inson tafakuuri go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengayadi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa Ijtimoiy taraqqiyotida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ladi. Tasviriyy san'at o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Bular nafis san'at turi. Nafis san'at bu Leanar Da Vinchi tarifi bilan aytadigan bo'lsak, bu poeziya ko'rib turamiz. Poeziya esa-rang tasvir biz buni tinglab turamiz.

MATERIALLAR VA USULLAR

Nafis san'at o'z navbatida 4 turga bo'linadi:

1-Dastgohli rang tasvir

2-Mahobatli rang tasvir

4-Dekorativ rang tasvir .

5-Minyatura (mo'jiza)

Mohabatli rang tasvir

Mohabatli rang tasvir texnikasi vositalarini o'rganishga katta e'tibor qaratib uning plastik shaklini badiiy obrazlarda ochib berish ahamiyatlidir. O'qish jarayoni dunyoda yetuk badiiy asarni tahlil qilish va amaliy mashg'ulotlarda vazifalarni bajarish asosida olib boriladi. Badiiy asar g'oyasini ochib berishda qo'llangan mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi turlarini anglashga ko'nikma hosil qilinadi. Mahobatli rang tasvir texnika va texnologiyasini o'rganish o'quv kursi vazifalarini mavzu bo'yicha tanlangan tasviriyy asar kompazitsiya eskizini bino



devorida amalga oshirish bosqichlari ustida ish olib borishni nazarda tutadi. Mahobatli rang tasvirni mazaika devoriy rasm (raspis) sgraffito va vitraj turlarini egallash dasturining keyingi bosqichlarida asta-sekun devoriy rasmlar turlarining plastik va zamonaviy uslublari bilan tanishtirib boriladi

Декоратив rang tasvir: Декоратив rang tasvir asoslari mustaqil amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek binolarni ichki va tashqi devorlarini bezatishda qo'llanilladi. Ular panno shaklida shuningdek quticha, patnis sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezashga hizmat qiladigan naqshlar, frizlar namayon kabi mayda elementlar ham dekorativ rang tasvirga kiradi.

Minyatura: Minyatura (mo'jaz) rangtasvir deganda bejirim juda kichik, jajji nozik san'at asoslari tushuniladi. Minyatura rangtasvir o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topadi. U kitoblardagi bosh yakuniy bezak, zarhal harf illyutsiyalardan iborat bo'lgan rangtasvirning bir turi. Sharqda shu qatori Movorunahrda katta shuhrat qozonadi. Hozirgi kunda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki quticha, nosqavoq kabi buyumlarni ham bezashda ishlatilib kelinadi. Shuningdek, u katta bo'lmagan o'lchovda mustaqil san'at asari sifatida ham qo'llanilyapti. Minyatura-RANG tasvirning bu sohasida bo'yoqlar sof holatda qabul qilinadi. Juda qadim zamonlardan oldin suvga sariq bo'yoq qo'shib ishlatishgan. Bunday ish uslubida yorug'-soya qonuniga e'tibor berilmaydi. Minyatura uslubi ko'plab sharq shoirlarining dostonlari uchun bajarilgan illyustratsiya shaklida ham qabul qilingan. Misol uchun Kamoliddin Behzod, Alisher Navoiy asarlariga bajarilgan tasvirlar.

Dastgohli rang tasvir: Dastgohli rang tasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib mahsus matolar, karton yog'och, ramkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash suv bo'yoq, tempyura bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbertlar)ga o'rnatib ishlanadi.



Minyatura: Minyatura maktablari sharqda juda rovojlangan bo'lib turli nomlar bilan atalgan. Misol uchun "Buxoro maktabi", "Yazd "maktabi, "Bog'dod", maktabi , "Tabriz" maktabi kabu yirik tasviriy san'at markazlari mavjud bo'lgan

Tasviriy san'atning turlari

Bular: Rangtasvir, Grafika, Naqqoshlik

Rang tasvir bu bo'yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asarlardir. Rasmning muhit tasviriy va tasvir vositasi rang hisoblanadi. Rang orqali borliq yoki hayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlanishi mumkin. Yana biz rang tasvirida makonni cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini moddiylikni hajmini ko'rsatish va o'y-hayollarini tasvirlashimiz mumkin. Rangli tasvir qadimda so'nggi paleolit miloddan avvalgi 40-8 ming yilliklarda paydo bo'lgan. O'zbekistonda rang tasvir san'ati qadimdan mavjud bo'lgan. Uning ilk namunalari ibtidoiy jamoa davriga borib tarqaladi. Miloddan avvalgi 1-ming yillikning oxiri va milodiy 1-ming yillikning boshlarida Rang tasvir o'zining gullagan davrini boshdan kechirgan. Bu davrda ranglar yassi bezak yo'nalishida mahalliy (lakal) ranglarda bajarishgan. Amir Temur va Temuriylar davrida monumental rang tasvir bilan birga minyatura san'ati rivojlangan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahqib, Muhammad Murad, Samarqandiy va boshqalarning asarlari dunyoga keladim XIX-asr o'rtalaridan boshlab Turkistonda dastgoh san'ati shakillana boshladi va XX-asrda o'zbek milliy rang tasvir maktabi vujudga keladi. Rang tasvirning hamma tur va janrlarida asarlar yaratiladi. Minyatura, vitraj san'ati qayta tiklanadi. Bugungi kunda o'zbek rang tasvir san'ati jahon hamjamiyati bilan bir qatorda rivojlanib kelmoqda. Uning g'oyaviy plastik rivoji ushbu rassomlar mehnat qilishmoqda. Rangtasvir bu rang san'ati hisoblanib, haqiqiy hayotni aks ettirib tomoshabinning fikri va hissiyotlariga tasir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan. Biror bir satx yuzasiga bo'yoqlar bilan bajarilgan san'at asarlarigina rang tasvir



deyishimiz mumkin. Rang tasvirdagi obrazlar juda yorqin. Rassimlar asarlarini rang tasvie va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlari bilan Rangtasvirdagi eng asosiy tasirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi. Rang tasvirning inson hissiyotlarini va tafakkurining murakkab aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o'zgarishlari fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega. Bularning hammasi rang tasvir janrlari orqali beriladi. Rang tasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masgani tasviri obrazlar va harakatlarga faqta rang orqali ko'riladi. Rang tasvirning tasviriy va tasirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo'lgan erkinlik va to'liq kuch bilan foydalaniladi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko'rsarish, muhim detallarni bo'rttirish, masgani chuqurligini berish yoki tasvirning yassiligini berish mumkin. Rang tasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzluksiz bo'yoq qatlamini hosil qiluvchi bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoki akvarel rang tasvirida qog'ozda bo'yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzluksizligi tasvirning uszlukisizligi tasir qilmaydi. Chunki bo'yoqlar bir biriga singishib va aralashib ketishadi.

METADALOGIYA

Grafika: Grafika-lotınca "grafo" so'zidan olingan bo'lib "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda, ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guash va tushda ishlangan. Bezaklar turlari plakatlari, hajviy rasmlar vkh kiradi. Rasm va rasm san'atiga asoslangan lekin o'z tasvir va ifoda vositalariga ega bo'lgan bosma badiiy asoslar. Oddiy grafika vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan tasvirlarni yaratish bilan shug'ullanadi. Ularga misol sifatida rasmlar fotosuratlar, chizmalarni keltirish mumkin kompyuter animatsiya vaqt o'tishi bilan o'zgaradigan tasvirlar yaratadi. Masalan multfilimlar videoklip va videoroliklar tasvirini qog'ozda fotoplyonkada kinolenta va boshqalarda aks ettirish usulidan farqli ravishda kompyuter grafikasida kompyuterda hosil qilingan



tasvirini darhol o'chirib tashlash, unga tuzatish kiritish, istalgan yo'nalishda toraytirish yoki cho'zish, yaqinlashtirish, va uzoqlashtirish, burish harakatlantirish, rangini bajarish mumkin. Kitoblarni bezash rasm va chizmalarni tayyorlashda buyumlarni loyihalash va modellarni yasashda telereklamalar yaratishda multfilimlarni yaratishda, kinofilimlarda qiziqarli kadrlarda qo'llaniladi. Naqqosh so'zi (arabchada)- naqsh ustasi, bezak gul yarayuvchi usta. Amaliy san'atning barcha sohalaridagi ustalarga naqsh nusxalari taxta, andozalar tayyorlab beradi, guo bosuvchi ustalar uchun naqsh qoliplari tayyorlab beruvchi ustalarga ham naqsh mujassamlashmasini chizib beradi Naqqoshlik-amaliy san'atning qadimiy turi, naqsh yaratish kasbi, naqqosh usta qog'ozga yoki matoga naqsh mujassamatini yoki matoga naqsh taqsimini chizib oladi. Amaliy san'at usullari 2 xil usulda bezak yartadilar. Naqqoshlar tayyorlagan taxta andoza yordamida hamda naqsh to'g'ridan-to'g'ri bezash jarayonida ustalar tasavvurining mahsuli sifatida yaratiladi. Naqqoshlarda naqsh, bezakni malakali naqsh ustalari chizib beradilar, bunday naqshlarni memorlik gilamchilik, kashdo'zlik, kandakorlik va boshqa mujasamatlarda birday uchratishimiz mumkin. Naqsh yaratish ustadan did mahoratlardan tashqari qunt, uzoq mashq va malaka talab qiladi. Naqqoshlar o'tmishdagi ustalarning eng bilimdon Iste'dodli ta'lim olgan turli adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematikani yaxshi bilishgan. Natyurmort vaholanki natyurmort janrida samarali ijod etish uchun tinmay o'qish, o'rganish va izlanish zarur. Tasviriy san'atning gullab yashnashida Piter klass, Jan-Batist, simeon Sharden, Frans Snayders, I Xvutsikiy, P. Konchalovskiy, I. Mashkov, N. Kashina, Rhaim Ahmedov, G'ofur Abdurahmonov, Akmal Ikrom jonvorlarning o'z o'rnini bor. Natyurmort janrida asar yaratish rassom hayolida uzoq vaqt davom etadigan kuzatishlar natijasida yoki to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Natyurmort (fransuzcha) narsa "meyort" jonsiz degan ma'noni bildiradi. Bu janrda musavvir asosan insonni o'rab turgan atrofimizdagi narsalar, turmushimizda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulatlari gullab, mevalar



va shu kabi narsalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak atrofidagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayotganligini ham ko'rsatadi. Maishiy janr tasvirning san'atda kishilarning kundalik maishiy hayotini turki voqealarini o'zida mujassamlashtiradi. Rang tasvir aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII-asrda ijod etgan Golland rassomlari-Piter de XOX, Ostade, Sten Terbrox Vermef kabilar ijodida namoyin bo'ladi Rus realist rassomlaridan P.Fedotov, V. Perov, V.Maksimov, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadilar. O'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inag'amov, R.Choriyev, F.Abdurahmonov lar ham ushbu janrlarda samarali ijod etganlar

NATIJALAR

Animalistik janr :Animalistik janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotinchada "anima"-hayvonot olami degan ma'noni anglatadi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqsh sevgi va mahorat bilan yondashadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan o'sha davrda ular g'orlarning devorida kiyik, momontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiyada va Xitoyda hayvonlarning tuzilishida hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVII asrg kelib, hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavirlar Leonarda Vinchi va A.Dyurlar ishlab chiqdilar. Tasviriy janrda uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar xalqlarning turmush madaniyati tasvirlanadi U uyg'onish davrida vujudga kelib XIX-asr sanoatida keng rivojlangan. Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri V.L Surikob edi. U qatir ajoyib "o'quvchilar qatl etilgan tang" kabi asarlarni yaratadi. Rassomning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadi xalqning o'tmishida boshidan kechirganlarini ko'rsatish edi. Tarixiy mavzudagi asarlarga taniqli musavvir M.Nabiyevning "Eski maktab" asari misol bo'la oladi. Batk janr- "batal" fransuzcha so'z bo'lib "jang", "urush" manosi



bildiradi. Manzara: Tasviriy san'at janrlari ichida manzara janri eng qadimiysi hisoblanadi chunki u tabiatni aks ettiruvchi tasviriy san'at asoslaridandur XIX-asr realistik san'atida manzara janri beqiyos rovojlana boshlaydi. Manzara janridagi asarlarda borliq tabiatdagi ko'rinishlarini aks ettirilgan bo'ladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki rassom o'z ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Ayrim rassomlar vodiylari tog'-u toshlarni tasvirlashni yoqtirsalar, ayrimlari esa dengizlarni ham tasvirlashga harakat qiladilar. O'zbekistonda manzara janrida asarlar yaratgan rassomlar ham talaygina Bular: N.Kashina, R.Choriyev, Rahim Ahmedov, Abdulhaq Abdullayev, Isfandiyor Xaydarov, Malik Nabiyeu, R.Temurov, P.Tohirov, M.Yo'ldashev, M.Saidov kabi rassomlar o'zlarining asarlarida jannatmakon o'lkamizni tasvirlash orqali rivoj topadi. Portret Tasviriy san'atda portret janri eng murakkab janrlardandir. Portret janrida odamlarning yuzlari tasvirlanadi. Bu rassomdan shakl, nisbat va ranglarning mohir ustasi bo'lish bilan birga inson shaxsni yaxshi tushunishi uning psixologik holatini idrok qila olishi, his tuyg'ularini bila olishi his tuyg'ularini, rangini rasm ishlayotgandagi holatiga mos tarzda ifodalash malakalariga ega bo'lishni talab qiladi. Sababi suratdagi kishining kimligini, yoshini, fel-u atvorini, amal-unvonini katta gavda, boy-kambag'aligini ham ifodalab berishi kerak. Insonning ichki ruhiy olam bilan bog'langan holda obraz yaratishi portret san'ati deb ataladi. Portret yaratish o'ziga hos murakkab jarayon bo'lib insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy manaviy holati shuningdek bo'lishi mumkin. Portretchi rassom odamlarga xor turli harakatlarini his qila bilishi ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylik, yoki sohta tuyg'ularini tasvirlaydigan qobilyatga ega bo'lishi zarur. Portret janrlar ichida murakkab aql zakovatli, tafakkurini tabiatda sodir bo'lib turadigan katta-kichik o'zgarishlarni uzluksiz falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarini tasirchan ifodalashga qodir.



XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki tasviriy san'at yo'nalishida ijod qilayotgan rassomlar va pedagoglar tasviriy san'atning tur va janrlari to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Sababi ushbu yo'nalishning tur va janrlarini bilmay turib san'atni, san'at sirlarini o'rganib bo'lmaydi. San'at tur va janrini bilib turib batafsil ma'lumotlarga ega b'lishi kerak. Uni mohiyati va mazmunini tushunib yetsagina anashunda ushbu soha bo'yicha go'zal va betakror asarlar yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A "Manaviy yuksalish yo'lida" I.T.Uz. Nashr 1998
2. Xudoyberganov R.A "Kompazitsiya" – T.T.D.S.I bosmaxonasi 2004
3. Xudoyberganov R.A "Rangshunoslik asoslari"-T G'.G'ulom nashr 2006
4. Hasanov R "Maktabda tasviriy sanat mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari" O'qituvchi nashryoti. Toshkent 1986
5. Saidaxmedov.N "Yangi pedagog texnologiyalari" Moliya nashryoti Toshkent 2003
6. Abdullayev.N.U "San'at tarixi" Toshkent o'qituvchi 1986
7. Abdirasilov .S.F Tasviriy san'at o'qitish metodikasi-T."Fan va texnologiya", 2012, 8-7 bet
8. Hasanov R "Tasviriy san'at asoslari" 2009